

## AGROKLASTER TIZIMIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO‘LLASH STRATEGIYALARI

**Jo‘rayev Farrux Do‘stmirzayevich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTT,  
i.f.f.d., dotsent

Tel.: +998 97310 90 82

ORCID: 0009-0000-5657-9734

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston agroklasterning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, uni yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Niderlandiya, Turkiya va Xitoy agroklasterning modellari bilan taqqoslash orqali O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi klasterlarining ustunlik va rivojlanish yo‘nalishlari aniqlandi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mustahkamlash hamda eksport salohiyatini oshirish agroklasterning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Niderlandiyaning aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, Turkiyaning subsidiyalar asosida rivojlangan modeli va Xitoyning avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari O‘zbekiston agroklasterni uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ko‘rildi. Maqolada investitsiyalarni jalb qilish, resurslardan samarali foydalanish va malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** agroklasterning, qishloq xo‘jaligi, innovatsiyalar, eksport, investitsiyalar, samaradorlik, texnologik rivojlanish.

### **Аннотация**

В данной статье проведен анализ экономической эффективности агрокластерной системы Узбекистана и разработаны предложения по ее дальнейшему развитию. Сравнение с моделями агрокластеров Нидерландов, Турции и Китая позволило выявить конкурентные преимущества и перспективные направления развития агропромышленных кластеров Узбекистана. Внедрение инновационных технологий, укрепление механизмов государственной поддержки и увеличение экспортного потенциала значительно повышают эффективность агрокластеров. Опыт Нидерландов по применению технологий умного сельского хозяйства, модель субсидирования Турции и автоматизированные производственные системы Китая определены как перспективные направления для Узбекистана. В статье предложены рекомендации по привлечению инвестиций, эффективному использованию ресурсов и подготовке квалифицированных кадров.

**Ключевые слова:** агрокластер, сельское хозяйство, инновации, экспорт, инвестиции, эффективность, технологическое развитие.

### **Abstract**

This article analyzes the economic efficiency of Uzbekistan's agrocluster system and develops recommendations for its further improvement. A comparison with the agrocluster models of the Netherlands, Turkey, and China has identified the competitive advantages and key development directions of

Uzbekistan's agricultural clusters. The adoption of innovative technologies, strengthening of state support mechanisms, and expansion of export potential significantly enhance the efficiency of agroclusters. The Netherlands' smart agriculture technologies, Turkey's subsidy-based development model, and China's automated production systems have been identified as promising directions for Uzbekistan. The article provides recommendations on attracting investments, efficient resource utilization, and training of qualified specialists.

**Keywords:** agrocluster, agriculture, innovations, export, investments, efficiency, technological development.

### **KIRISH**

Agroklaster tizimi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tizim ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarining yagona integratsiyalashgan model asosida tashkil etilishini ta‘minlab, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi [1][3].

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agroklasterlar iqtisodiy o‘sish va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilishda muhim vositalardan biridir. Xususan, Niderlandiya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar klaster yondashuvini joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirishga erishgan [8][14][15]. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agroklaster modeli resurslarni optimal taqsimlash, ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham qishloq xo‘jaligi klasterlash orqali raqobatbardosh tarmoqlarni shakllantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish strategiyasini olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvar PQ-15-son “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.<sup>1</sup>[19]. Bunda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport hajmini ko‘paytirish va agroklasterlarning xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-yanvar PQ-15-son “Savdo-sanoat palatasi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6367860>

Ushbu maqola O‘zbekistonda agroklaster tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, xalqaro tajribalarni solishtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha optimallashtirish modellari va strategiyalarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalari agroklaster tizimining rivojlanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni baholash, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar berish va ilg‘or strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan [3][6][12].

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Agroklaster tizimi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta‘minlashga qaratilgan strategik model sifatida ilmiy izlanishlarda keng o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, klasterlash nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini yaxlit integratsiyalash, balki tarmoqning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash imkonini ham beradi [1][2].

Klaster nazariyasining ilmiy asoslari Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘zining "Raqobat afzalligi" va "Klasterlar va raqobatbardoshlik" asarlarida klasterlarning iqtisodiyotga ta‘sirini chuqur tahlil qilgan [4]. Porterга ko‘ra, klaster tizimlari mintaqaviy va global iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish uchun muhim omil hisoblanadi. Klasterlash orqali kompaniyalar hamkorlikni kuchaytirib, umumiy xarajatlarni kamaytirish va innovatsion texnologiyalarni tezroq joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [4].

Piter Druker o‘zining "Innovatsiyalar va tadbirkorlik" asarida klasterlarning innovatsion rivojlanish jarayonlariga ta‘sirini chuqur o‘rgangan [5]. Uning fikriga ko‘ra, klaster tizimlari doirasida innovatsiyalarni joriy etish yanada samarali bo‘lib, bu mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish imkonini beradi.

Philip Kotler esa "Marketingni boshqarish" asarida klaster tizimlarining xalqaro bozorga chiqish strategiyalari uchun muhimligini ta‘kidlaydi [6]. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, klasterlash qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlashga yordam beradi va marketing strategiyalarining aniq belgilanishiga xizmat qiladi.

#### **Xalqaro tashkilotlar va global yondashuvlar**

Jahon Banki, FAO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) va WTO (Jahon Savdo Tashkiloti) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar agroklaster tizimining xalqaro savdo va iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini chuqur tahlil qilgan [2][3][7]. Ushbu tashkilotlarning hisobotlarida agroklasterlarning global oziq-ovqat ta‘minotida muhim rol o‘ynashi va ularga investitsiyalar jalb qilish zaruriyati ta‘kidlangan.

Niderlandiya agroklastirlash modeli yuqori samaradorlik va innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo'lib, bu mamlakat qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda jahon yetakchilaridan biri hisoblanadi [8].

Turkiya qishloq xo'jaligi klasterlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari va subsidiyalar asosida rivojlangan bo'lib, bu esa ichki ishlab chiqarishning oshishiga va tashqi bozorlarga chiqishga xizmat qilmoqda [14].

Xitoy esa avtomatlashtirilgan qishloq xo'jaligi va texnologiyalarni keng joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallamoqda [15]. Ushbu tajribalar O'zbekiston agroklastir tizimini rivojlantirishda muhim o'rnak bo'lishi mumkin.

O'zbekiston agroklastir tizimining rivojlanish jarayonlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda mahalliy olimlar, jumladan, Raximov va Eshonqulov (2022) tomonidan klaster modelining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganilgan [9].

Adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, agroklastir tizimini samarali yo'lga qo'yish resurslardan foydalanish darajasini oshiradi, eksport salohiyatini kengaytiradi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqola esa mavjud ilmiy yondashuvlarni O'zbekiston sharoitida tadbiq etish va optimallashtirish yo'llarini tahlil qilishga qaratilgan.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqot O'zbekiston agroklastir tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

- Benchmarking – O'zbekiston agroklastir tizimining real iqtisodiy natijalari Niderlandiya, Turkiya va Xitoy agroklastir modellari bilan solishtirildi.
- Trend tahlili – 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston agroklastirlari bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari o'rganildi.
- Deskriptiv tahlil – agroklastirlarning samaradorligini baholash uchun ishlab chiqarish hajmi, eksport ulushi, investitsiyalar, innovatsiyalar va kadrlar malakasi kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi.
- Qiyosiy tahlil – O'zbekiston agroklastir tizimi rivojlanishining ustunlik va kamchiliklari xalqaro tajribalar bilan taqqoslandi.

Ushbu metodologik yondashuv orqali O'zbekiston agroklastir tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha aniq strategik tavsiyalar ishlab chiqildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Agroklastir tizimi qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish va eksport hajmini kengaytirishning muhim vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatadiki, O'zbekistonda agroklasterni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish hajmi, resurslardan foydalanish samaradorligi, eksport salohiyati va investitsiyalarni jalb qilish kabi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish zarur. Shu maqsadda, O'zbekiston agroklasterni tizimini Niderlandiya, Turkiya va Xitoy agroklasterni modellari bilan nisbatan benchmarking qilish orqali uning rivojlanish imkoniyatlari baholandi.

Benchmarking natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston agroklasterni hali xalqaro miqyosdagi ilg'or agroklasterni darajasiga yetmagan bo'lsa-da, samaradorlikni oshirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Quyidagi jadval orqali O'zbekistonning agroklasterni modeli Niderlandiya, Turkiya va Xitoy tajribalari bilan taqqoslandi.

### 1-jadval.

#### O'zbekistonning agroklasterni modeli Niderlandiya, Turkiya va Xitoy tajribalari bilan taqqoslash<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	Niderlandiya	Turkiya	Xitoy	O'zbekiston
<b>Asosiy agroklasterni sohasi</b>	Yirik fermalar, eksportga yo'naltirilgan ekinlar	Paxta-to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati	Agrokimyo, don va sabzavot ishlab chiqarish	Meva-sabzavot, paxta-to'qimachilik, don sektori
<b>Ishlab chiqarish samaradorligi</b>	70% meva-sabzavot eksport qilinadi (FAO, 2023)	Ichki iste'mol va eksport muvozanati saqlangan	Yillik 5-7% qishloq xo'jaligi o'sishi	Ishlab chiqarish hajmi ortmoqda, lekin resurslardan foydalanish samaradorligi past
<b>Innovatsiyalar va texnologiyalar</b>	Aqlli qishloq xo'jaligi, raqamli monitoring	Davlat subsidiyalari bilan modernizatsiya	To'liq avtomatlashtirilgan qishloq xo'jaligi	Texnologik modernizatsiya asta-sekin rivojlanmoqda
<b>Eksport salohiyati</b>	Yevropaga yirik yetkazib beruvchi	Ichki iste'molga asoslangan, Yevropaga eksport	Global yetakchi eksportchi, AQSh va Yevropaga eksport	Eksport yo'nalishi rivojlanmoqda, lekin ichki bozorga bog'liq
<b>Davlat qo'llab-quvvatlashi</b>	Qishloq xo'jaligi uchun grantlar va subsidiyalar	Davlat tomonidan subsidiyalar	Sanoat darajasida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash	Subsiyalar mavjud, biroq investitsiyalar yetarli emas
<b>Kadrlar va malaka</b>	Yuqori darajali agro-menejment ta'limi	Qishloq xo'jaligi sohasida texnik bilimlar	Ilmiy markazlar va texnologiyalar bilan ta'minlangan	Kadrlar yetishmovchiligi, agro-menejment rivojlanmoqda

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston agroklaster tizimi qishloq xo‘jaligining samaradorligini oshirish, eksport hajmini kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Agroklaster modeli ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni tasdiqlaydiki, Niderlandiya, Turkiya va Xitoy agroklaster modellarida innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, davlat tomonidan samarali qo‘llab-quvvatlash va xalqaro bozorlarga chiqish strategiyalarining natijadorligi yuqori. O‘zbekiston ushbu ilg‘or tajribalardan foydalangan holda o‘z agroklaster modelini takomillashtirish va iqtisodiy yutuqlarga erishish uchun katta salohiyatga ega.

Agroklasterlarni rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar:

- Investitsiyalarni kengaytirish – Xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay muhit yaratish, imtiyozli kreditlar va subsidiya mexanizmlarini rivojlantirish orqali agroklasterlarning barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror o‘shishini ta‘minlaydi.

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – Aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlari, raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish orqali agroklasterlarning samaradorligini oshirish, texnologik modernizatsiyani tezlashtirish talab etiladi. Bu yondashuv hosildorlikni oshirish bilan birga resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

- Eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro bozorlarga chiqish – Xalqaro sifat standartlariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi eksport yo‘nalishlarini ochish orqali agroklasterlarning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlashga e‘tibor qaratish lozim.

- Ekologik barqarorlikni ta‘minlash – Suv tejoychi texnologiyalar va chiqindisiz ishlab chiqarish modellarini joriy etish orqali agroklasterlarning ekologik barqarorligi oshiriladi, hosildorlik yaxshilanadi va eksport salohiyati kuchayadi.

- Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish – Zamonaviy agrotexnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilish va xalqaro ilg‘or tajribalarni O‘zbekistonda joriy etish agroklasterlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston agroklaster tizimi jadal rivojlanmoqda va xalqaro tajriba asosida uni yanada takomillashtirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksportni kengaytirish va qishloq xo‘jaligi sohasining barqaror o‘shishini ta‘minlash

imkoniyatlari mavjud. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish orqali O'zbekiston agroklastarlari xalqaro bozorda muvaffaqiyatli ishtirok etishi va global miqyosda raqobatbardosh o'rin egallashi kutiladi.

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash, innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish va xalqaro tajribadan foydalanish O'zbekiston agroklastar tizimining barqaror rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi. Ushbu yondashuvlar orqali mamlakat nafaqat ichki talabni qondirish, balki jahon qishloq xo'jaligi bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga erishishi kutiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Food and Agriculture Organization (FAO). (2023). The State of Food and Agriculture. FAO Publishing. [Online] Available at: [www.fao.org](http://www.fao.org)
2. World Trade Organization (WTO). (2022). World Trade Report: Agricultural Trade and Market Access. WTO Publications. [Online] Available at: [www.wto.org](http://www.wto.org)
3. World Bank Group. (2023). Agricultural Clusters and Competitiveness in Emerging Markets. World Bank Reports. [Online] Available at: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)
4. Porter, M.E. (2003). Clusters and Competitive Advantage: Strategies for Economic Growth. *Harvard Business Review*, 78(6), 77-90.
5. Drucker, P. (1977). *Innovation and Entrepreneurship*. Harper & Row Publishers, New York.
6. Kotler, P. (2006). *Marketing Management*. Prentice Hall.
7. Letiche, J.M. (2022). Adam Smith and David Ricardo on Economic Growth. *The Punjab University Economist*, 1(2), 7-35.
8. Spiertz, J.H.J., & Kropff, M.J. (2011). Adaptation of Knowledge Systems to Changes in Agriculture and Society: The Case of the Netherlands. *NJAS: Wageningen Journal of Life Sciences*, 58(1-2), 1-15.
9. Nastin, A.A. (2011). Agrarian Clusters and Their Role in Rural Development. *Economics of Agricultural Enterprises*, 10, 53-57.
10. Arashukova, V.P. & Romanov, A. (2011). Cooperation in the Agro-Industrial Sector: Trends and Prospects. Moscow: NIPKTS Vostok-A.
11. Ahmadeev, M.G. (2007). Cluster Strategies in the Agro-Industrial Complex. *Russian Entrepreneurship*, 8, 38-42.
12. Kundius, V.A. (2012). Formation of Clusters in Rural Areas – A Basis for Innovative Development of the Agro-Industrial Sector. *Economics of Agricultural Enterprises*, 2, 56-60.
13. OECD. (2022). Enhancing Agricultural Productivity through Innovation in Emerging Economies. OECD Publishing.

14. Turkish Statistical Institute (TUIK). (2023). Agricultural Trade and Development in Turkey. [Online] Available at: [www.tuik.gov.tr](http://www.tuik.gov.tr)
15. China Agricultural Outlook (CAO). (2023). China's Agricultural Modernization and Export Strategies. China Ministry of Agriculture Reports.
16. Shukurov, O. (2021). O'zbekiston qishloq xo'jaligida agroklaster tizimining iqtisodiy samaradorligi. Tashkent: Fan va Texnologiya.
17. Ricardo, D. (1817). On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray.
18. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
19. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. (2024). Agro-Industrial Development Strategy Report. Tashkent: Government Press.
20. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2023). Agro-Industry Development and Cluster Formation. UNIDO Reports.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

## 2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**